BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK SALOHIYATNI YUKSALTIRISHNING MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

Yoqubjonova Shodiya G‘ayratovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisida pedagogik salohiyatni yuksaltirish jarayonining ma’naviy va axloqiy asoslari tahlil qilinadi. Inson kapitalining rivoji, shaxs kamoloti, kasbiy yetuklik va ma’naviy barkamollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib beriladi. Zamonaviy jamiyatda tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axloqiy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tamoyillarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, kadrlarning salohiyatini oshirishda mas’uliyat, vatanparvarlik, halollik va kasbiy kompetensiyalarning uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kadrlar salohiyati, tarbiya, inson kapitali, tarbiya fani, o‘qituvchi, ma’naviyat, axloq, kasbiy kompetensiya, shaxs kamoloti, milliy qadriyatlar, mas’uliyat, ijtimoiy taraqqiyot.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi O‘zbekistonga munosib farzand qilib tarbiyalash o‘z navbatida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilar faoliyatini davr talablari asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Shu boisdan ham hozirda yangi O‘zbekistonning istisboli va kelajagi uchun kurashuvchi, chuqur ma’suliyatni his qiladigan yoshlarni tarbiyalashda eski usullardan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, sharqona va demokratik jarayonlar asosida jamiyatga hurmat, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish va mehr-oqibatli bo‘lish kabi fazilatlarni amalga oshirish

muhim ahamiyatga ega. Mana shunday talablar asosida o‘quvchilarning axloqiy madaniyati, hayot tajribasi va bilim darajasi ortib boradi.

O‘quvchi-yoshlar jamiyatda, jamoada, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini topishga, mamlakat oldida turgan ulkan vazifalarni hal etish uchun kurashga faol ravishda turadilar. Shu sababli o‘quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan bunyodkor ishlari uchun ilhomlantirish o‘qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki har bir bolaning jamiyat hayotida ishtirok etishi tarbiyaviy ishning muhim samarasi sifatida millat istiqboli, taraqiyoti bilan bog`liq muammolarni milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Kadrlar salohiyatini oshirish jarayoni insonni har tomonlama rivojlantirish, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ongli va mas’uliyatli faoliyat yuritishga tayyorlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonni chuqur anglash uchun ma’naviy qadriyatlar va axloqiy mezonlarga murojaat etish zarur.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi. Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiyaning nazariy asoslari;
- tarbiya didaktikasi;
- tarbiya amaliyoti.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirishda o‘zlikni anglash, yuksak ma’naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni talab etiladi. Asosiy jihatlar: pedagogning shaxsiy namunasi, o‘quvchida vatanparvarlik va insonparvarlikni shakllantirish, kasbiy etika, ma’rifatparvarlik hamda pedagogik mahoratni zamonaviy yondashuvlar asosida doimiy rivojlantirib borishdan iborat.

Tarbiya fani o‘qituvchilarining ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib boriladi:

- **shaxsiy namuna va kasb etikasi:** o‘qituvchi o‘z xatti-harakati, muomalasi va dunyoqarashi bilan o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishi lozim. Bu "ustoz-shogird" an’analarini tiklash va pedagogik odob-axloq qoidalariga rioya qilishni o‘z ichiga oladi;

- **milliy va umuminsoniy qadriyatlar:** pedagog milliy o‘zlikni anglash, tarixiy meros va diniy bag‘rikenglikni o‘quvchilar ongiga singdirishi, ma’naviy-axloqiy tarbiya milliy qadriyatlarimiz asosida amalga oshirilishi lozim;

- **ma’rifatparvarlik va mafkuraviy immunitet:** o‘qituvchi yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun yuksak bilim va dunyoqarashga ega bo‘lishi talab etiladi;

- **zamonaviy pedagogik yondashuvlar:** bo‘lajak o‘qituvchilar salohiyatni yuksaltirishda faqat nazariy bilim emas, balki ularda nterfaol metodlar, psixologik yondashuvlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim;

- **ruhiy-axloqiy tarbiyalash:** o‘qituvchining o‘zini-o‘zi tarbiyalashi, ruhiy barqarorligi va yuksak ma’naviy muhitni yaratish qobiliyati ustida ishlashi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bu jihatlar o‘qituvchini shunchaki bilim beruvchi emas, balki shaxsni shakllantiruvchi tarbiyachi darajasiga ko‘taradi.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirish ma’naviy-axloqiy jihatdan mas’uliyatni his etish, milliy qadriyatlarni tiklash va yuksak fuqarolik madaniyatini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon uzluksiz ta’lim va axloqiy fazilatlarni kamolga yetkazish orqali amalga oshiriladi.

Pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ma’naviy-axloqiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- **mas’uliyat madaniyati:** kasbiy mas’uliyatni chuqur his etish va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish;

- **axloqiy fazilatlar:** halollik, fidoyilik, sadoqat kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va nohusliklardan (korrupsiya, loqaydlik) voz kechish;

- **milliy qadriyatlar:** milliy ma’naviy merosga asoslangan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

- **uzviylik:** kadrlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini bolalarning yoshligidan boshlab uzluksiz ta’lim tizimida yuksaltirib borish.

Bu jihatlar jamiyatda har tomonlama rivojlangan, ham kasbiy, ham axloqiy salohiyatga ega kadrlarni shakllantirishning fundamental asosidir.

Ma’naviy jihatlar va ularning ahamiyati.

Ma’naviyat – insonning ichki dunyosi, e’tiqodi, qadriyatlari va hayotiy mezonlarini ifodalaydi. Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirishda ma’naviy tarbiya asosiy omillardan biridir.

Ma’naviy jihatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

• vatanparvarlik tuyg‘usi;
• milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat;
• halollik va poklik;
• fidoyilik va sadoqat;
• ijtimoiy mas’uliyat.

Ma’naviy barkamol kadr jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ya oladi. U o‘z kasbini nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy xizmat deb biladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida ma’naviy komponentni kuchaytirish orqali yosh mutaxassislarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va halolligi ta’minlanadi. Chunki bilimli, ammo ma’naviyatsiz kadr jamiyat taraqqiyotiga xavf tug‘dirishi mumkin.

Axloqiy jihatlar va kasbiy madaniyat.

Axloq – jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari tizimidir. Har bir kasb o‘zining axloqiy talablariga ega. Masalan, pedagogda mehr-shafqat va adolat, shifokorda insonparvarlik, davlat xizmatchisida halollik va shaffoflik ustuvor bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini salohiyatini oshirishda axloqiy tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Shaxsda mas’uliyat hissini shakllantiradi.
2. Kasbiy odob va madaniyatni rivojlantiradi.
3. Jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi.
4. Korrupsiyaga qarshi immunitet hosil qiladi.

Axloqiy jihatdan yetuk kadr o‘z bilimini jamiyat manfaatiga yo‘naltiradi, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga intiladi.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

- Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo‘lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo‘lib kelgan.

- Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi;

- Tarbiya jarayoninig xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

- Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari pedagogik texnologiyaga oid bilimlar bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga oid bilimlarga ham ega bo‘lishi shart: o‘qituvchi xatti-harakatlarining algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo‘yicha barcha operatsiyalarni mukammal bajara olishi lozim.

Tarbiya fani – yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga yetishi uchun ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, insonning jamiyatda muayyan sifatlarini (jismoniy, ma’naviy, ruhiy, aqliy va boshqa) ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi.

Tarbiya jarayoni – har bir insonning hayot uchun yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatini o‘zida shakllantirish hamda o‘zgalarga berish jaryonidir. Tarbiya maqsadi – talaba yoshlarda milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari maqsadi – O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunlarining g‘oyalarini e’tiborga olgan holda erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vosita bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishdir, ya’ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy hamda mehnat madaniyatini shakllantirish kabi tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirish – bu kompleks jarayon bo‘lib, unda ma’naviy va axloqiy omillar o‘zaro uyg‘unlashadi. Inson kapitalining rivoji faqat bilim va malaka bilan emas, balki shaxsning ichki dunyosi, e’tiqodi va axloqiy mezonlari bilan belgilanadi.

Shunday ekan, ta’lim va tarbiya tizimida:

- shaxsning mustaqil fikrlashi;
- ma’naviy barkamolligi;
- kasbiy mas’uliyati;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari pedagogik malakasini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish pedagogik jarayonni yanada mukammallashtiradi. Bu esa o‘z navbatida, yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini yuksaltirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori. www. lex. uz.

2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

3. Yoqubaliyeva, D.Z. (2024). Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini “Tarbiya” fanini o‘qitishga tayyorlashning samarali omillari va tamoyillari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 190-192.

4. Yoqubaliyeva, D.Z, Norqobilov, D. (2024). Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish orqali ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 63-65.

5. Yakubaliyeva, D. (2023). PREPARATION FOR THE ORGANIZATION OF SCIENTIFIC RESEARCH WORKS IN STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Science and innovation, 2(B12), 447-1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.